

Oilalarda internetga tobelikning bugungi kundagi ahamiyati

Nizomiy nomidagi TDPU
“Amaliy psixologiya”
Kafedras v.b. dotsenti p.f.n (PhD)
N.I. Kushakova
kuwakovanargiza7777@gmail.com

Annotatsiya: Oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an’analarni saqlab qolish hamda targ’ibot qilish masalalari bo’yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir.

Kalit so’zi: Oila, internet, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni, telefon, telegram, instagram va feysbuk.

Аннотация: В регионах проводится ряд фундаментальных, практических и инновационных исследований по вопросам укрепления и развития семьи, улучшения духовно-нравственного климата в семьях, сохранения и пропаганды в обществе самых поучительных семейных традиций.

Ключевое слова: Семья, интернет, духовно-нравственная атмосфера в семьях, телефон, телеграмма, instagram и Facebook.

Annotation: A number of fundamental, practical and innovative studies are being conducted in the regions on strengthening and developing the family, improving the spiritual and moral climate in families, preserving and promoting the most instructive family traditions in society.

Key words: Facebook instagramming, family, Internet, spiritual and moral atmosphere in families, telephone, telegram, Instagram and Facebook.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017 yil 15 iyundagi «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqida jamiyatimiz hayotida, xalqimiz orasida uchrab turadigan, ayniqsa oila va nikoh sohasida duch kelinayotgan o’ta dolzarb, og’riqli va o’tkir muammolar to’g’risida, xususan, turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlarining uchrab turganligi, yosh oilalar orasida arimas sabablar bilan ajralishlar ko’payib borayotganligi, begunoh bolalar yetim bo’lib, mehr va e’tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolayotganligi haqida gapirib, “... oilalarda nosog’lom munosabatlar, qaynona-kelin, er xotin o’rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o’z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda”, degan edilar. Darhaqiqat, jamiyat va davlat uchun oila, nikoh, onalik, otalik va bolalik ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir, zero ushbu tushunchalar jamiyat va davlat shakllanishini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli oila va nikoh masalalariga, uchrayotgan muammolarga ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va oddiy turmush nuqtai nazaridan yondoshish, mazkur munosabatlarni qonun doirasida tartibga solish, bu boradagi qonun hujjatlarini real voqelikdan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish, ularning mazmunmohiyatini keng xalq ommasiga tushuntirish, oilaning har bir a’zosi, nikohga kiruvchi shaxslarning haq-huquqlarini qat’iy himoya qilish talab etiladi. Oila qo’rg’onining poydevori, uning mustahkam qal’asi, er-xotinni mahkam bog’lovchi rishtasi nikohdir. Oila rivojiga nafaqat oilada yashovchi shaxslarning ro’li

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

balkim unga t'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillari mavjud. Bulardan biri internet xisoblanadi. Bu virtual olam orqali insonlar boshqa bir shaxs bilan tanishib do'stona munosabat o'rnatishi oqibatida o'z oliasidan kechishi, sovuq munosabatlar shakillanishi aksincha mukkasidan berilib ketishi oqibatida ajrimlarning ko'payishini ko'rishimiz mumkin. Bu virtual olamda tanishining psixologiyasi shuki ko'rinmagan shaxs bilan muloqotga kirishishi xar xil mavzularida suxbatlashishi yashirish xolatdagi muloqotning qiziqarli kechishi va bu munosabat qisqa yoki uzoq davom etishi mumkin. Bu muammolar jamiyatimizning xar uchdan bir oilalar bilan yuz bermoqda. Ajrimlarining bosh negizi xam internet ya'ni telefon xisoblanib "telegram instagram va feysbuk" orqali tanishgan yoki oldaidan tanish bo'lgan virtual olamdagi shaxs bilan munosabat o'rnatishining yuzasidan kelib chiqmoqda. Bu esa oiladagi munosabatlarning buzilishi er-xotin farzandlar o'rtasida nizolarning ko'payishi yuz bermoqda. Bunga sasosiy sabab shuki shaxsda muloqotning yetishmasligi yoki oilada shaxslararo komunikativ muloqotning kamligi sabab bulmoqda. Shu muammoning bolalarda uchrashi yoki o'smirlik o'spirinlik davrlari bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin mukkasidan ketishning negiza farzandlarimizning qarovsiz qolishi, qiziqarli virtual o'yinlarga berilishi, bola yoshida asosiy o'rin elektron o'yin ekanligi bo'lib qolmoqda. Biz muammoni internet bilan bog'lab uni yechimini topishga xarakat qilmoqchimiz. Muammoni negizi internetga tobeligini aniqlash va shaxsda sog'lom turmush tarzini shakillantirishdan iborat. Oilada farzand tarbiyasi oila a'zolarining o'zaro munosabati va turmushning chiroyli va mazmunli kechishi xar birimizning qo'limizda. Xususan, oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an'analarni saqlab qolish hamda targ'ibot qilish masalalari bo'yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir. Misol uchun, zamonaviy muvaffaqiyatli oila mezonlari qanday bo'lishi kerak, degan mavzuda respublikamizning turli viloyatlarida 800 dan ortiq oilalarda ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, yakuniy natijalar bo'yicha zamonaviy oilaning modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot o'tkazilgan oilalar vakillarining fikrlariga ko'ra, oiladagi sog'lom va barqaror, osoyishta psixologik muhit; yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiya; yetarli darajadagi iqtisodiy va maishiy sharoitlar; oila a'zolarining ta'lim yo'nalishida oliy ma'lumotlilik darajasi; sihat-salomatlikka alohida e'tibor qaratish zamonaviy namunali oilaning asosiy mezonlari qatoriga kiradi. Shu o'rinda har qancha achchiq bo'lmasin, ochiq aytish kerak, tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, keyingi paytlarda xalqimizga xos bo'lmagan ayrim illatlar — oilaviy ajrashishlar, internet tobeligi, turli nizoli vaziyatlar, ishsizlik, oiladagi nosog'lom muhit, ma'naviy tushkunlik, ehtiyojmandlik, jinoyatga qo'l urish holatlari kabi omillar notinch, noqobil, kemtik oilalar va qator ijtimoiy-ma'naviy muammolarni paydo qilmoqda. Ayniqsa, ajrashishlar sonining kamaymayotgani kishida jiddiy tashvish uyg'otadi. Respublikamizning uchta viloyatida olib borgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, oilalar barbod bo'lishiga quyidagi omillar asosiy sabab bo'lmoqda: Psixologik omil — oiladagi og'ir psixologik muhit, o'zaro tushunishning yo'qligi, oiladagi doimiy nizolar, ota-onalarning yosh er-xotin hayotiga aralashishlari, yosh er-xotinlarni begonalashtirib qo'yish, bir-biriga befarqlik; Ijtimoiy omil — ichkilikbozlik, farzandsizlik, er yoki xotinning salomatligi yaxshi emasligi; internet tobeyligi; Ma'naviy-axloqiy omil — er-xotindan birining uzoq vaqt davomidagi nikohdan tashqari aloqalari; Iqtisodiy omil — turarjoysharoitlariningqoniqarliemasligi, moddiyetishmovchilik, ishsizlik, erningoilanita'minlamasligi, mehnatmigranti sifatida chet elgaketgan er-xotindan birining oilasi bilan aloqasi uzilgani, qarzlarniuzolmaslik E'tirofetishlozim, hozirgi kunga qadar 11800 dan ortiqnizolioilalarningishisudgaetibbormasdan, FHDYo organivasudgaajrashishuchunarizabergan

3100 dan ziyod oilalarni esa ham kortashkilotlar bilan birgalikda yarashtirishga erishildi. Umuman, buzilib ketish arafasida turgan 14645 ta oila saqlab qolindi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz xulosalariga tayanib, ajrashishlarning oldini olish, oilalarni mustahkamlashga qaratilgan qator takliflar ishlab chiqdik. Bizningcha, engavvalo, mahallafuqarolar yig'inlari huzuridagi Yarashtirish komissiyalari va "Ota-onalar universiteti" tuzilmalari uchun malakali kadr tayyorlashni yo'lga qo'yish zarur. Oila qurayotgan fuqarolarni tegishli qonunchilika sosida er-xotinning huquq va majburiyatlari, xususan, nikohshartnomasini tuzish tartiblari, shart-sharoitlari, oqibatlari yuzasidan huquqiy savod xonligini oshirish lozim. Bu borada kengqamrovli targ'ibot ishlarini yuritish, tegishli uslubiy qo'llanmalar yaratish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsad gamuvofiq. Umumta'lim maktablaridan tortib, oliy o'quv yurtlarining dasturlarigacha oila saboqlarini o'rgatuvchi darsmashg'ulotlarini kiritish foydadan xoli bo'lmaydi

Adabiyotlar ro'yxati

1. Янг К.С. Диагноз – интернет-зависимость // Мир Интернет. 2000. №2. С. 24-29.
2. Суходолов А. П., Бычкова А.М. «PR-аддикция» как новый вид поведенческой зависимости // Вопросы теории и практики журналистики. 2015. Т. 4. №4. С. 321–334.
3. Кожохин А. ВЦИОМ: больше половины молодых россиян зависимы от интернета. РИА Новости. 2013. 30 сентября. Режим ступа: <https://ria.ru/technology/20130930/966761700.html> (дата обращения: 10.11.2018)
4. Евграфова Ю.А. Влияние социально-экономических условий на формирование супружеских конфликтов // Омский научный вестник. 2007. № 6. С. 123–126.
5. Заяц О.В., Моргун С.Э. Изучение мнения студентов ДВФУ о социально-экономических факторах конфликтности в российских семьях // Общество: социология, психология, педагогика. 2016. №8. С. 17-1